

ME'ROJNOMAYI TURKIY"DA AYOL TIMSOLI: BIBI FOTIMA (r.a) NING ALI (r.a)GA QILGAN VASIYATLARI

Latipova Saodat A'zamovna

*Buxoro davlat universiteti Matnshunoslik va adabiy
manbashunoslik yo'nalishi magistranti*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro adabiy muhitida saqlanayotgan "Me'rojnomyai turkiy" asaridagi ayol timsoli sifatida tasvirlangan Hazrati Bibi Fotimaning obraziga, uning Hazrati Aliga qilgan vasiyatlari orqali ifodalangan ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga e'tibor qaratilgan. Tadqiqotda Bibi Fotimaning nutqi, undagi sabr, vafodorlik, diyonat va oilaviy mas'uliyat g'oyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, bu vasiyatlarning o'z davridagi diniy-tasavvufiy tafakkur, ayol sha'ni va onalik burchi haqidagi qarashlar bilan bog'liqligi ochib beriladi. Maqolada ayol timsolining ruhiy ulug'ligi hamda "Me'rojnomyai turkiy" asarida ayol idealining ifodasi badiiy-nazariy jihatdan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Bibi Fotima, Hazrati Ali, ayol timsoli, vasiyat, Me'rojnomyai turkiy, tasavvuf, ma'naviyat, sabr, vafodorlik, onalik qadriyati

"Me'rojnomyai turkiy" asarining muhim qismlaridan biri bo'lgan "Qissayi vafoti Bibi Fotimayi Zahro raziyallohu anho" bo'limi, o'zining g'oyaviy-badiiy chuqurligi bilan e'tiborga loyiqdir. Ayniqsa, Bibi Fotimaning Hazrati Aliga qilgan so'nggi vasiyatlarini ifodalovchi marsiya-she'r, nafaqat diniy-falsafiy mazmuni, balki insonga xos ruhiy kechinmalarni yuksak badiiylik bilan ifodalagani bois alohida e'tiborni talab qiladi.

Mazkur marsiya-she'r, Bibi Fotimaning dunyodan o'tish arafasida ikki farzandi va turmush o'rtog'i Ali raziyallohu anhuga nisbatan qalb og'rig'ini, ona mehrini va oxirat oldidan qilgan yurak so'zlarini yurakdan chiqqan iboralar bilan tasvirlaydi. She'rda Fotimaning hayot bilan vidolashuv holatini tasvirlovchi o'rinlar yurakni larzaga keltiruvchi ohangda ochiladi.

Ketarmen Shohimardon, emdi siz yaxshi qoling derman,
Vasiyatlar qilay sizga qulog'ingga iling derman.
Qoshimda lahza o'lturub quloq onga soling derman,
Ki mandin so'ng hechuk seni har dam holing derman,
Na yerda sarg'oyib qolg'o bu ikki bolang derman.¹
degan misralar bilan bu tasvir boshlanadi.

Marsiyaning davom ettirar ekanmiz, Fotima o'zining vafot soatining yaqinlashganini aniq anglab turishini sezamiz. Fotima(r.a) Hazrat Ali(r.a) dan yonida

¹مراج نامہ تورکی. Toshbosma.1914.Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi "Hujjatlar" fondi. 23497/ 11.- B38.

biroz sukut ila o'tirishni, so'zlariga e'tibor berishni so'raydi. "Nechuk seni har dam holing derman" degan misra esa, vafotidan so'ng Hazrat Ali (r.a.)ning holidan doimo boxabar bo'lolmasligini bildirmoqda. Bu esa syujetning dardli bir uzvi sifatida yuzaga chiqadi.

Fotima Ali bilan xayrlashar ekan, ona sifatida uning eng dardli onlari boshlanadi. U uchun o'g'illari, Hasan va Husan, bilan xayrlashish barchasidan og'ir edi. "Sarg'ayib qolg'o" ifodasi farzandlarining onasiz bu dunyo changalida yolg'iz qolishiga ishora qilib kelmoqda.

Keyingi jumlar onaning farzandlariga mehrini, ularni har tong va tun parvarish qilganini ifoda etib, "Bundan so'ng yuvag'on kimdir, Olib peshonasini boshlarin silag'on kimdir?" tarzidagi dardli so'roqqa almashadi. Bu bilan ayol qalbining nozikligi, ona yuragining yuki va oxirat oldi so'nggi mulohazalari mujassam topadi:

Shikasta xotirini ham bularni ulgon kimdur?

Ko'ngul ovlar kishing yo'qtur, otasi siz oling derman.

Yuvdim kokillarini, boshlarini bit bosmasunlar deb,

Mani har dam sog'inib ozmasun ham to'zmosunlar deb.

Borarga yer topolmay yuzlari sarg'aymosunlar deb,

Chikolib kokil yorg'uncha kulfat tortmasunlar deb.

Muni fikriga qolgan qolgon yo Ali man haloling derman,

Bu kun man non pishurdim o'z qo'lim birlan yesunlar deb,

Yesunlar nonlarni ham meni yor aylasunlar deb.²

Hazrati Fotima bu yerda o'z farzandlarining qalbini "shikasta" – siniq, ezilgan deb ta'riflaydi. Bu onaning o'limidan keyin farzandlar qanday ruhiy zarba olishini ilgari suradi. "Ulagon kimdir" degan ibora onaning bevosita, yurakdan chiqqan, savol ohangidagi nolasi bo'lib, bu holatni ong bilan emas, yurak bilan his qilish mumkin. Ko'ngli yo'q – ya'ni ularni yupatadigan, mehr beradigan kishi yo'q, deydi. Shu sababli Fotima(r.a.) o'z turmush o'rtog'iga – Ali (r.a.) ga iltijo bilan murojaat qiladi: "Otasiz qolg'on yuraklar sizga omonat".

Meni rozi qilur bo'lsang, ko'ngillarin oling derman,

Meni sog'insalar qabrim uzra har dam olib boring.

Tutub o'lturmasunlar uy ichida ikkisi motam,

Bobom bilan meni qabrimni ko'rsa, dardi bo'lg'oy kim?

Ketor bo'lg'oy bularni ko'krakida mehnat ila g'am

Meni ko'nglumdagi bor bul na xayoling yo Ali derman

Ayo xolis vasiyatni Aliga Fotima aytdi,

So'zini muxtasar qildi o'shal dam og'ridi yotdi

Kanizi derki, xoliq ajalni sharbatidin tortdi,

² مراجع نامه تورکی Toshbosma.1914.Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi "Hujjatlar" fondi. 23497/ 11.- B 37.

Jahondin yuz o‘girdi ham o‘shal kun dunyodin o‘tdi³

Asarda Bibi Fotima (r.a.) Hazrat Aliga so‘nggi vasiyatlarini bildirar ekan, har bir so‘zida ona yuragining iztirobi, farzandlariga bo‘lgan chuqur muhabbati va oilaviy mehr-muruvvatga asoslangan iltijosi aks etadi. U o‘zining bu foniy dunyodan ko‘z yumishga yaqin qolganini anglatar ekan, hayotda ortida qolayotgan eng aziz insonlari – farzandlari haqida o‘ylaydi, ularning kelajakdagi ahvoli, yetimlikdagi dard-u iztiroblari uni ruhan qiynaydi.

Fotima onaning vasiyati nafaqat oddiy, oilaviy ko‘rsatmalar, balki bir musulmon onaning butun umri davomida his qilgan muhabbati, g‘amxo‘rligi va sabrining ifodasidir. U Hazrat Alidan bolalarini mehr bilan katta qilishni, ularni urmaslikni, haqorat qilmaslikni, qiyinchiliklarga ularga yelkadosh bo‘lishni so‘raydi. U farzandlarini yetimlik dardidan yuzlari sarg‘ayishini, ko‘ngillari sinishini istamaydi. Bolalar meni sog‘inishsa, qabrimni ziyorat qilsinlar, meni eslab ulug‘lik bilan tilga olsinlar, degan orzularni bildiradi.

Vasiyatining oxirida esa Fotima (r.a.) so‘zlarini qisqartiradi, jismoniy og‘riq kuchayganini bildiradi. Kanizining guvohlik berishicha, u shu so‘zlardan so‘ng hayot bilan vidolashgan. Ajal “sharbatini ichdi” degan poetik tasvir orqali Fotimaning vafoti ilohiy iroda, Xoliq taqdirining tabiiy davomidek talqin etiladi. “Ichkariga Ummu Rofe bilan Asmo binti Umayslar kirdilar. Ular tahorat olishlariga yordamlashib yuborganlaridan keyin:

– Robbinga duo va iltijo qilmoqchiman, - deb yolg‘iz qoldirishlarini istadilar. Allohga munoajat qilganicha nozik vujudlarini xonada qoldirib, ruhlarini Allohga topshirdilar.

Fotimayi Zahro onamiz vafotlariga yaqin qolganda Asmo binti Umaysga:

- Vafotimdan so‘ng meni erkaklar oldiga pardasiz chiqarishingizni o‘ylab juda uyalib ketyapman, - degan edilar. U paytlarda ayollarning mayiti kafanga o‘ralib, usti yopilmasdan olib ketilardi”.⁴ Bu esa asardagi ruhiy yuksaklik va sabr-ma‘rifat tuyg‘ularini yanada chuqurlashtiradi.

Vidolashuv marsiyasi tugagandan so‘ng asarda **“Hazrati Ali Bibi Fotimaga pand aytganlari”** nomli pandnoma she‘r boshlanadi. Bular esa matnning eng fojiali, ruhiy, poetik jihatdan ta’sirli qismi hisoblanadi. Asarning mazkur bo‘limida Hazrati Ali Bibi Fotimaning yurakni larzaga soluvchi vasiyatlarini eshitib, chuqur ruhiy iztirobga tushadi:

Yuz o‘girib bizni tashlab emdi qayga borosan,

Ko‘nglumizni g‘amda tashlab emdi qayga borosan?

Qolsa, o‘g‘ling ko‘zini yoshlab emdi qayga borasan?

³مراج نامہ تورکی.Toshbosma.1914.Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi “Hujjatlar” fondi. 23497/ 11.- B 40-41.

⁴مراج نامہ تورکی.Toshbosma.1914.Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi “Hujjatlar” fondi. 23497/ 11.- B 42

Bizni tashlab, kimni xushlab emdi qayga borosan?

Qolasan yer bag‘rida xurshidi xovar mahramim,

Ayrilib sendin yana bu ikki o‘g‘ling na qilur?

Sog‘inib har dam seni ham ozib, achib yiqilur.⁵

Asarning mazkur bo‘limida Hazrati Ali Bibi Fotimaning (r.a.) yurakni ezuvchi vasiyatlarini eshitib, chuqur ruhiy larzaga tushadi. Ul zotning kayfiyati, dil iztiroblari, vujudini kemirayotgan dard satrlar orqali o‘ta ta’sirli tarzda ifoda etilgan.

Hazrati Ali o‘ziga aytilgan vasiyatlarni “eridi” deb tasvirlangan holatda, ya’ni ko‘ngli larzaga kelib, sabr kosasi tolib, bag‘rini yerga qo‘ygancha qattiq kuyunchaklik bilan qabul qiladi. Bu yerda “eridi” va “bag‘rini yerga berdi” kabi obrazli ifodalar orqali erkak kishining, bir buyuk sahobaning onalik mehri oldida qanday ojiz holga kelishi tasvirlangan. Bu, birinchi navbatda, Hazrati Alining insoniyligi, uning qalbidagi muhabbat va sabr sinovining yuksak darajada tasviridir.

Hazrati Ali Fotimaning gaplaridan hayratda qolgan, yuragi ezilgan holda shunday deydi: “Men endi nima qilayin, yuragimni g‘amingda qon qilurman”. Bu satrlar Fotimaning yo‘qolishi bilan bog‘liq ruhiy sinov, chuqur g‘am, ichki qarama-qarshilik holatini ifoda etadi. Ali (r.a.) sevgan ayoli, Payg‘ambar avlodi bo‘lgan Fotimadan judo bo‘lish fikrini qabul qila olmaydi.

Keyingi satrlarda Ali (r.a.) sevganining dardini o‘z dardiga aylantiradi: “Tirikdurman, sanga motam tutarman, seni darding bilan men ham o‘tarman”. Bu o‘rinda u Fotimaning o‘limi uning hayotini tubdan o‘zgartirishini, qolgan umrini motam bilan o‘tkazishini bildiradi. Hazrati Ali uchun Fotima shunchaki rafiqqa emas, balki butun qalbining, ruhining bir parchasi edi.

Ali (r.a.) “O‘qudi has-bu holing, to‘kdi yoshin, dar-u devorg‘a o‘ldum urdi boshin” degan misrada to‘liq his-tuyg‘ularining boshqacha yo‘l bilan ifodasini ko‘rsatadi. Bu o‘zini urib, jismoniy harakatlar bilan iztirobni tashqariga chiqarish holatidir. Bu holat nafaqat shaxsiy azob, balki inson qalbidagi og‘riqning ifodasi sifatida juda kuchli ta’sirga ega.

Baytlar davomida Ali o‘z o‘g‘illari — Hasan va Husan haqida ham o‘ylaydi. Ularning hali yosh, nochor va mehrga muhtoj ekani ko‘rsatilib, Fotimaning yo‘qligida ular qanday ahvolda qolishini tasvirlaydi. “Ozib, ichib yiqilur” degan ifoda orqali, ularning ichki iztirobi, ruhiy zarbasi bevosita tasvirlanadi.

Hazrati Ali, G‘azot (jihod)ga borishini eslab, ayoli va bolalari uyda yolg‘iz qolganida, ularni kim parvarish qiladi, kim mehr beradi, degan xavotir bilan to‘lib-toshgan. U ham dardda, ham mas’uliyatda yolg‘iz qolgandek his qiladi. Bu ifodalar, otalik tuyg‘usi va mas’uliyat og‘irligini ko‘rsatadi.

“Beradi qodir egam bir necha kun senga omon” satri esa sabr va iymonli bo‘lgan bandaning Allohga bo‘lgan suyanishini bildirib keladi. Ali (r.a.) Fotimaning joni

⁵مراج نامہ تورکی. Toshbosma.1914.Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi “Hujjatlar” fondi. 23497/ 11.- B 42.

og‘rimasin, salomat bo‘lsin degan umidda duo qiladi, ammo ichidan uning ketishini his qilib, biror chora topolmay iztirobga botadi.

Oxirgi baytlardagi “Koni rahmatidin eding dunyoda guhar mahramim” jumlasida Bibi Fotimaning rahmatli, mehribon, muqaddas ayol bo‘lganini bildiradi. U nafaqat turmush o‘rtog‘i, balki haqiqiy ruhiy do‘st – "guvar mahram" bo‘lgan. Bu satr, erkak va ayol orasidagi chuqur, samimiy, sodiq rishtaning timsolidir.

“Me’rojnoma’yi turkiy” asarida **“Bibi Fotima roziyallohu anhonin vafotlarini sahobalar eshitib yig‘ilib kelg‘onlari”** sarlavhasi ostida voqealar davom etadi. Ushbu bo‘lim 43-47 sahifalarni tashkil etib, asarni yakulovchi qism vazifasini o‘taydi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu parchalar nafaqat shaxsiy fojiga bag‘ishlangan badiiy ifoda, balki didaktik saboq va tarixiy-ma’naviy xotiraning ramziy ifodasidir. Matnda tilning poetik kuchi, obrazlarning bevosita turli joylardan emas, ilohiy-ma’naviy manbalardan kelib chiqqanligi uning qadrini yana oshiradi. She’riy mazmun muallif tomonidan chuqur ma’naviy mulohaza bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, har bir misrada ma’naviy saboq va ruhiy kechinmalar mujassam.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири (Таржима ва тафсир муаллифи Абдулазиз Мансур). -Тошкент, 2004.
- 2.Шайх Муҳаммад Содиқ Муҳаммад Юсуф “Қуръони Карим ва ўзбек тилидаги маънолар таржимаси” 2023. “Ҳилол”нашриёт-матбааси, 3-жуз
3. Me’rojnoma’yi turkiy.Toshbosma.1914.Buxoro davlat muzey-qo‘riqxonasi “Hujjatlar” fondi. 23497/ 11.
4. Бухорий “Ал-жомиъ ас-саҳиҳ”, 3-китоб, Тошкент-1991.
5. Abdukamol Abdujalilov. Fotima roziyallohu anho.”Credo Print group” nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent.2024.
- 6.Nurdan Damla. Suyuklimiz gulg‘unchasi. Hazrati Fotima roziyallohu anho. Toshkent. Munir nashriyoti. 2024.